DOI: https://10.5281/zenodo.17893685

SURUNKALI KASALLIKLARDA HAMSHIRALIK KUZATUVI: YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK KUZATUVI VA YURAK-QON TOMIR XAVFINI ANIQLASH O‘QITISH METODIKASI

Qo‘chqorova Mushtariy

Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtikasi xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Guliston filiali o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) butun dunyoda kasallanish va o‘limning yetakchi sababi bo‘lib qolmoqda. Giper-tenziya, ateroskleroz, ishemik yurak kasalligi, yurak yetishmovchiligi kabi surunkali holatlar bemorlarni doimiy tibbiy kuzatuvga muhtoj qiladi. Hamshiralik kuzatuvi YQTKning erta aniqlanishi, asoratlarning oldini olish, muntazam nazorat va bemorlarning sog‘lom turmush tarziga amal qilishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada YQTKda hamshiralik kuzatuvi va yurak-qon tomir xavfini aniqlashga asoslangan o‘qitish metodikasi ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yurak-qon tomir, Giper-tenziya, ateroskleroz, uzluksiz ta’lim, ishemik yurak, yurak yetishmovchiligi

ABSTRACT

Cardiovascular diseases (CVD) remain a leading cause of morbidity and mortality worldwide. Chronic conditions such as hypertension, atherosclerosis, ischemic heart disease, and heart failure require continuous medical monitoring of patients. Nursing care plays an important role in early detection of CVD, prevention of complications, regular monitoring, and ensuring that patients adhere to a healthy lifestyle. This article

develops a teaching methodology based on nursing care and cardiovascular risk assessment in CVD.

Keywords: Cardiovascular, Hypertension, atherosclerosis, continuing education, ischemic heart, heart failure

KIRISH

Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) butun dunyoda kasallanish va o‘limning yetakchi sababi bo‘lib qolmoqda. Giper-tenziya, ateroskleroz, ishemik yurak kasalligi, yurak yetishmovchiligi kabi surunkali holatlar bemorlarni doimiy tibbiy kuzatuvga muhtoj qiladi. Hamshiralik kuzatuvi YQTKning erta aniqlanishi, asoratlarning oldini olish, muntazam nazorat va bemorlarning sog‘lom turmush tarziga amal qilishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada YQTKda hamshiralik kuzatuvi va yurak-qon tomir xavfini aniqlashga asoslangan o‘qitish metodikasi ishlab chiqiladi. Yurak–qon tomir kasalliklari (YQTK) bugungi kunda jahonda o‘limning eng yuqori ulushini tashkil etuvchi surunkali kasalliklar guruhiga kiradi. Ularning rivojlanishida turmush tarzi, irsiy omillar, psixologik zo‘riqish, yomon odatlar va boshqa bir qator xavf omillari muhim rol o‘ynaydi. YQTKning davomiy xarakterga ega bo‘lishi ularni doimiy monitoring qilish, bemorlarni kuzatuvga olish hamda profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, hamshiralik kuzatuvi YQTK bilan og‘rigan bemorlarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordamning ajralmas qismi hisoblanadi. Hamshira yurak faoliyatini nazorat qilish, arterial bosimni o‘lchash, yurak urish tezligini kuzatish, EKG natijalarini baholash, xavf omillarini aniqlash, bemorlarga sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha ta’lim berish va psixologik ko‘mak ko‘rsatishda katta mas’uliyatga ega. Mazkur ma’ruzada YQTKda hamshiralik kuzatuvi jarayoni, yurak–qon tomir xavfini baholash tamoyillari hamda bu jarayonlarni o‘qitish metodikasi batafsil yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1) YQTK bo‘yicha milliy va xalqaro klinik tavsiyalar tahlili;

2) Hamshiralik amaliyotida qo‘llanilayotgan kuzatuv jadvallari, xavfni baholash shkalalari (SCORE2, Framingham) o‘rganildi;

3) Hamshiralarning amaliy faoliyatida uchraydigan muammolar tahlil qilindi;

4) O‘qitish jarayoniga mos metodik yondashuv ishlab chiqildi;

5) Mazkur metodika asosida amaliy seminarlar sinovdan o‘tkazildi.

Natijalar metodik qo‘llanmaga integratsiya qilindi.

Yurak–qon tomir kasalliklarida hamshiralik kuzatuvi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bemor holatini baholash

– arterial bosimni muntazam o‘lchash;

– yurak urishi va ritmini kuzatish;

– nafas olish tezligi va sifatini tekshirish;

– shishlar, holsizlik, hansirash kabi belgilarga e’tibor qaratish.

2. Laborator va instrumental ko‘rsatkichlarni monitoring qilish

– xolesterin, triglitseridlar, glyukoza;

– EKG, ECHOKG natijalarini kuzatish.

3. Xavf omillarini aniqlash

– chekish, semirish, gipodinamiya, stress, noto‘g‘ri ovqatlanish;

– oilaviy anamnez.

4. Profilaktika va o‘qitish

– sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha maslahatlar;

– dori qabulini nazorat qilish;

– jismoniy faollikni tartibga solish.

5. Psixologik qo‘llab-quvvatlash

– stressni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar;

– motivatsiya berish.

Hamshira bu vazifalarni bajarish jarayonida bemor bilan uzluksiz muloqotda bo‘lishi, uni to‘g‘ri yo‘naltirishi va dori vositalariga rioya qilishni nazorat qilishi lozim.

NATIJALAR

Sinov mashg‘ulotlari shuni ko‘rsatdiki, IRKdan foydalanish hamshiralarning monitoringni tizimli yo‘lga qo‘yishiga, bemorlarda xavf omillarini erta aniqlashga va parvarish sifatini oshirishga yordam beradi.

Hamshiralik kuzatuvi samaradorligi quyidagilar orqali aniqlanadi:

- arterial bosimning me’yorga tushishi;
- yurak urishi barqarorlashuvi;
- bemorning shikoyatlari kamayishi;
- jismoniy faollikning oshishi;
- xavf omillarining pasayishi (chekishni tashlash, vazn kamayishi);
- dori qabuliga rioya qilinishi.

Talabalarning bilim va ko‘nikmalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- klinik vaziyatni tahlil qilishi;
- xavfni aniqlash malakasi;
- IRKni to‘g‘ri yuritishi;
- bemor bilan samarali muloqotda bo‘lishi;
- amaliy ko‘nikmalarni to‘liq bajara olishi.

MUHOKAMA

YQTKda hamshiralik kuzatuvi yurak kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. IRKning qo‘llanishi hamshiralarga bemorlarning individual ehtiyojlarini aniqlash, xavfni baholash va davolash jarayoniga o‘z vaqtida aralashish imkonini beradi.

Metodik yondashuvning ustun jihatlari:

– monitoring ko‘rsatkichlarining tizimlashtirilishi;

– bemor bilan samarali muloqotni kuchaytirish;

– xavfni baholashni amaliyotga tatbiq etish;

– hamshiralarning klinik fikrlashini rivojlantirish.

O‘qitish metodikasi amaliy mashg‘ulotlar, jadvallar, holatlar tahlili va IRKni to‘ldirish bo‘yicha interaktiv topshiriqlarni o‘z ichiga oldi.

XULOSA

Yurak-qon tomir kasalliklarida hamshiralik kuzatuvi va xavfni aniqlash tizimli yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada ishlab chiqilgan o‘qitish metodikasi hamshiralarga bemorlarni sifatli kuzatish, xavf omillarini aniqlash va profilaktik ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. IRK asosidagi monitoring bemor salomatligini yaxshilash, asoratlarni kamaytirish va YQTKning tarqalishini kamaytirishga xizmat qiladi. Metodikaning ta’lim jarayoniga joriy etilishi kelajakdagi hamshiralar malakasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Yurak–qon tomir kasalliklarida hamshiralik kuzatuvi surunkali kasalliklarni boshqarishda eng muhim bo‘g‘inlardan biridir. Hamshira bemor holatini muntazam kuzatib borishi, xavf omillarini aniqlashi, profilaktika choralarini o‘rgatishi va dori vositalariga rioya qilishni nazorat qilishi zarur. Talabalarga bu jarayonlarni o‘rgatish nazariy bilim, amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiya metodlari va individual yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan o‘qitish metodikasi natijasida talabalarda klinik fikrlash, kuzatuv, xavfni baholash va bemor bilan muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa kelajakda yurak–qon tomir kasalliklarini samarali boshqarish va aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5-maydagi «Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida»gi PF-6221- sonli Farmoni Farmoni. Qonun hujjatlari ma‟lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).
2. Akbarov N. Texnika oliy o‘quv yurti talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Avtoref. ped.fan.dok dis. – T.: TDPU, 2008. – 45 b.
3. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma‟naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Dis. ped. fan. dok. - Toshkent, 1993. – 364 b.

4. Ishonov Q.L. Pedagogika kollejlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Avtoref. Diss. ped.fan.nom. – 45 b.
5. Imomov M.P. Professional ta‘‘lim muassasalari o‘quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent., 2021. - 152 b.
6. Ernazarova G.O. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish.
7. Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2017 - Toshkent. - 68 b.